

## **STANDARTLASHTIRISH, METROLOGIYA VA SERTIFIKATLASHTIRISH SOHASIDAGI ISHLAR TO‘G‘RISIDA ANALITIK MA‘LUMOTNOMA**

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (“O‘zstandart” agentligi) texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat tizimlarini boshqarish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy organi hisoblanadi.

“O‘zstandart” agentligining asosiy vazifalari:

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”, “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Metrologiya to‘g‘risida”, “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda boshqa qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy jihatdan amalga oshirishni ta‘minlashdan;

xalqaro standartlarni qo‘llash asosida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, jumladan sifat tizimini boshqarish va b. sohalarda yagona davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.

### **Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish**

2015 yilda 1999 ta standart davlat ro‘yxatidan o‘tdi, ulardan 127 tasi xalqaro normalar talablari (ISO, ASTM, POL) bilan uyg‘unlashtirilgan O‘zbekiston davlat standartlari (O‘zDSt), 409 tasi asosan oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnik mahsulotlar va mashinasozlik mahsulotlariga tegishli bo‘lgan davlatlararo standartlar (GOST).

Hisobot yilida Normativ hujjatlar davlat fondiga 2868 ta normativ hujjatlar kelib tushdi, ulardan 399 tasi – ISO Xalqaro standartlari, 1363 tasi – Davlatlararo standartlar (GOST), 1106 tasi – Rossiya davlat standartlari (GOST R). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 5 maydagi PP-2343-sonli “2015-2019 yillarda energiya sig‘imini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha choralar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorini bajarish maqsadida energiya va resurslarni tejash sohasida 8 ta xalqaro standartlar davlat standartlari sifatida qabul qilindi, hamda energetik menejment sohasida 50000 seriyasidagi quyidagi xalqaro standartlar qabul qilindi:

“Energetik menejment tizimi. Talablar va qo‘llash bo‘yicha qo‘llanma”;  
“Energetik auditlar. Talablar va qo‘llash uchun qo‘llanma”;

“Energetik menejment tizimlari. Energetik menejment tizimlari auditi va sertifikatlashtirishni amalga oshiradigan organlarga doir talablar”.

Respublikaning manfaatdor vazirliklari va idoralari bilan birgalikda “Yetakchi xalqaro tajriba mezonlarini hisobga olgan holda texnologik jihozlarning energiya samaradorligi parametrlarini aniqlash bo‘yicha metodologiya” ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Ushbu metodologiyaning qoidalari energiya iste‘mol qiluvchi jihozlarning normativ hujjatlariga energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini asoslangan tarzda kiritish va O‘zbekiston Respublikasi energetik siyosatining xalq xo‘jaligi sohasida amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan muhandislik-texnik, ilmiy-tadqiqot, texnik-iqtisodiy vazifalarning katta miqdorini hal qilishga imkon beradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 30 iyulda 207-son bilan tasdiqlangan Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturiga muvofiq, 2015 yilda Vazirlar Mahkamasining tegishli Qarorlari bilan respublika uchun muhim bo‘lgan quyidagi Umumiy texnik reglamentlar tasdiqlandi:

“Ta‘lim muassasalari uchun poligrafiya mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida” (03.06.2015 y. 146-son);

“Metallurgiya mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida” (06.11.2015 y. 319-son);  
“Siqilgan tabiiy va suyultirilgan neft gazlarida ishlash uchun qayta jihozlangan avtotransport vositalarining xavfsizligi to‘g‘risida” (11.11.2015 y. 326-son);

5 ta Umumiy texnik reglamentlar ishlab chiqildi va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritildi:

“Ekspluatatsiya shartlari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi texnikasi konstruksiyalarining xavfsizligi to‘g‘risida”;

“Dori vositalarining xavfsizligi to‘g‘risida”;

“Donning xavfsizligi to‘g‘risida”;

“Liftlarning xavfsizligi to‘g‘risida”;

“Yengil sanoat mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida”.

### **O‘lchashlar birliligini ta‘minlash**

O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirishni ta‘minlash doirasida 2015 yilda “O‘zstandart” agentligining metrologik xizmatlari tomonidan 2 006 409 ta o‘lchash vositasi tekshirildi, ulardan 59 657 (2,9 %) ta o‘lchash vositasi yaroqsiz deb topildi va to‘xtatildi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga yagona ekzempliyada keltirilayotgan va respublikada ishlab chiqarilayotgan 33 030 ta o‘lchash vositasi metrologik attestatsiyadan o‘tkazildi.

2015 yil davomida 161 ta o‘lchash vositasiga tasdiqlangan turni tan olish sertifikatini tayyorlandi va rasmiylashtirildi, hamda 74 turdagi o‘lchash vositalari O‘zbekiston Respublikasi O‘lchash vositalari davlat reyestriga kiritish bilan turni tasdiqlash maqsadida davlat sinovidan o‘tkazildi.

Respublikamiz korxonalar va tashkilotlarining so'rovnomalariga binoan quyidagi ishlab chiquvchilarning 64 turdagi SN ekspertiza qilingandan keyin Standart namunalari (SN) davlat reyestriga kiritildi: Rossiya Federatsiyasidan (FGUP «VNIIMS», «Viktori-Standart» MChJ, «Viktori-Standart» MChJ, «Krassvetmet» OAJ, «YeZ OTsM» OAJ, «Yugra-PGS» MChJ, FGUP «VNIIM im. D.I. Mendeleeva», GNU VNIIA Rosselxozakademii, «Institut Gipronikel» MChJ), Qozog'iston Respublikasidan («Kazhermetavtomatika» AJ), Ukrainadan (Milliy fanlar akademiyasi A.V. Bogatskiy nomidagi Fizika-kimyó institutining Tajribali ishlab chiqarishli maxsus konstruktorlik-texnologik byurosi).

O'lchashlar birliligini ta'minlash tizimining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, o'lchash natijalarining ishonchliligini oshirish, moddiy, energetik va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida metrologik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida"gi qaror loyihasi ishlab chiqildi va kelishish bosqichida turibdi. Elektr energiyasini yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni tartibga solish, hamda hisoblash asboblari yechish, ularni qiyoslashga topshirish bo'yicha ishlar, qiyoslash, ta'mirlashni o'tkazish tartib-tamoyillari, hisoblash asboblari o'rnatish va ro'yxatdan o'tkazish tartibining ochiq-oydinligini ta'minlash maqsadida "O'zstandart" agentligi tomonidan "O'zdavenergonazorat" Davlat inspeksiyasi bilan birgalikda "Maishiy iste'moldagi elektr energiyasini hisoblash asboblari qiyoslashdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlandi (01.12.2015 y.da 2736-son bilan AV da ro'yxatdan o'tkazilgan).

### **Muvofiqlikni tasdiqlash**

O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonunida belgilangan normalarni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 14.10.2015 y.da 292-son bilan "O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish bo'yicha choralar to'g'risida" qarori qabul qilindi, va ushbu qaror tomonidan "Muvofiqlikni baholash organlari va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya va inspeksion nazoratdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom" va "O'zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlandi. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 11.12.2015 y.dagi 697-sonli "Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etish uchun talabgor bo'lgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi (AV 30.12.2015 y. 2748-son). 2016 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikada "O'zstandart" agentligi tomonidan akkreditlangan:

- 126 ta mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha organ;

- 27 ta sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha organ;
- 443 ta sinov laboratoriyalari;
- 42 ta shartnomalarni mustaqil ekspertiza qilish yuk ortish/yuk tushirish inspeksiyasi bo'yicha konsalting kompaniyalari va b. muvofiqlikni baholash sohasida xizmat ko'rsatmoqda.

Respublika hududlarida xizmat ko'rsatish maqsadida mahsulotlarni (xizmatlarni) sertifikatlashtirish bo'yicha 17 ta organ, sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha 5 ta organ, 46 ta sinov laboratoriyalar (shu jumladan qurilish materiallari bo'yicha – 12 ta, elektrotexnika mahsulotlari bo'yicha – 10 ta, mashinasozlik bo'yicha – 8 ta, kimyo mahsulotlari – 10 ta, oziq-ovqat mahsulotlari – 4 ta va putur yetkazmasdan tekshirish – 2 ta) akkreditlandi. 15 ta mahsulotlarni (xizmatlar) sertifikatlashtirish organlari va 36 ta sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalari kengaytirildi. Shu jumladan joylarda sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazishni ta'minlash maqsadida Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazining hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari (SSM) sertifikatlashtirish organlarining akkreditlash sohalari kengaytirildi va bu bilan ishning 95 % ga qamrab olinishi ta'minlandi.

3 ta sinov laboratoriyalarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha ishlar amalga oshirildi: Respublika SSM, Toshkent SSM va Qashqadaryo SSM, jumladan tegishli moddiy texnik baza o'zlashtirildi va xorij mamlakatlarining sinov laboratoriyalari bilan solishtirish sinovlari o'tkazildi.

2015 yilda O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida 133 098 ta muvofiqlik sertifikatlari berildi, jumladan xorijiy mamlakatlarning sertifikatlarini tan olish yo'li bilan 5 563 ta muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya asosida 563 ta sertifikat berildi.

### **Sifatni boshqarish tizimlari**

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi ishlarni takomillashtirish maqsadida 600 dan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi 558 ta yirik sanoat korxonalari o'rganib chiqildi.

O'tkazilgan tahlil natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.10.2015 yildagi 298-sonli «2020 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida milliy sifat infratuzilmasini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Dasturda quyidagilar ko'zda tutilgan:

- 197 ta laboratoriyalarni modernizatsiya qilish, shuningdek umumiy summasi 53,5 mln.doll. bo'lgan asbob-uskunalar sotib olish;

- oziq-ovqat, kimyoviy, elektrotexnik, mashinasizlik mahsulotlarini, qurilish materiallari va yengil sanoat mahsulotlarini sinash bo'yicha 12 ta laboratoriyalarni xalqaro darajada akkreditatsiya qilish;

- 174 ta xalqaro standartlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish;  
- menejment tizimlarini joriy qilish (sertifikatlashtirilgan korxonalar sonini 3 010 bir. ga oshirish);

- «O'zstandart» agentligi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy qilish;

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturiga qo'shimchalar kiritish. Hozirda respublikaning 2227 ta korxonalarida sifatni boshqarish tizimi (SMT) joriy qilindi va sertifikatlashtirildi, 2323 ta sertifikat berildi. Ulardan talablarga muvofiqiqligi uchun:

- ISO 9001:2008 xalqaro standarti bo'yicha – 2096ta SMT sertifikatlari;  
- ISO 14001:2004 Ekologik menejment tizimlari xalqaro standarti – 47ta SMT sertifikatlari;

- OHSAS 18001:2007 Kasbiy xavfsizlik va sog'liq menejmenti tizimlari xalqaro standarti bo'yicha – 60ta SMT sertifikatlari;

- ISO 22000:2005 Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining menejment tizimlari xalqaro standarti bo'yicha – 47ta SMT sertifikatlari.

### **Xalqaro hamkorlik**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PQ-2343-sonli «2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha choralar dasturi to'g'risida»gi Qarorini bajarish doirasida O'zbekiston Respublikasining Xalqaro elektrotexnik komissiya (IEC)ga ishtirokchi a'zoli (affilirli) to'g'risida masala o'rganib chiqildi. 2015 yilning 20 oktyabrida «O'zstandart» agentligi Bosh direktori va IEC Bosh kotibi tomonidan IEC ishtirokchi a'zo davlatlar dasturida ishtirok etish uchun majburiyatlarni olish to'g'risida hujjat imzolandi.

Respublikaning ishtiroki uchun yanada ustuvor IEC texnik qo'mitalari, shuningdek respublika korxonalarini uchun zarur IEC xalqaro standartlari aniqlandi. Laboratoriyalarni akkreditlash bo'yicha xalqaro tashkilot (ILAC) va Akkreditlash bo'yicha xalqaro forum (IAF), shuningdek Xalqaro o'lchovlar va tarozilar byurosi (BIPM)ga respublikaning a'zo bo'lishi bo'yicha tayyorgarchilik ishlari olib borilmoqda.